

KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA MUHITNING MOTIVASION VA KOGNITIV OMILLAR

Isaboyeva Dilyora Zokirjon qizi

Qo‘qon davlat universiteti

Boshlang‘ich ta’lim kafedrası o‘qituvchisi

Kalit so‘zlar: *metod, metodika, muhit, lingvistik kompetensiya, integratsiya, innovatsiya, kommunikativ ko‘nikma, subyekt, senzitiv davr*

Kommunikativ muhit ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi mazmunli, maqsadli, muloqotga yo‘naltirilgan o‘zaro ta’sir imkoniyatlarini vujudga keltiradigan, nutqiy faollikni rag‘batlantiruvchi ijtimoiy-pedagogik muhitdir. Ushbu muhit orqali o‘quvchilarda fikr bildirish, o‘z pozitsiyasini himoya qilish, mulohazali tinglash va ma’no anglash kabi ko‘nikmalar rivojlanadi. Kommunikativ muhit bilimni o‘zlashtirish jarayonini sodda axborot almashinuvi emas, balki interfaol jarayon sifatida shakllantiradi. Shu bois, ta’lim jarayonida ushbu muhitning o‘rni faqatgina lingvistik kompetensiya bilan emas, balki shaxsiy rivojlanish va ijtimoiylashuv bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Kommunikativ muhitda o‘quvchilar mustaqil fikr bildirish, savol berish, mulohaza yuritish, so‘z orqali ta’sir o‘tkazish, ijtimoiy munosabatlarda o‘zini erkin ifoda etish kabi qobiliyatlarni rivojlantiradi. A.V.Xutorskoy ta’limdagi kommunikativ muhitni “Fanlar va shaxslar o‘rtasida muloqot va hamkorlikni ta’minlaydigan, ma’no yaratish va anglash jarayonini amalga oshirishga xizmat qiluvchi integrativ makon” sifatida ta’riflaydi.⁵⁰ Bu ta’rifning ilmiy ahamiyati shundaki, u kommunikativ muhitni fanlararo munosabatlar va shaxslararo hamkorlik kontekstida baholaydi. Ya’ni, ta’lim makonida faqat o‘quv materialining o‘zlashtirilishi emas, balki o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘rtasidagi fikr almashinuv, shaxsiy pozitsiyalarning shakllanishi, ma’no yaratish faoliyati asosiy maqsad sifatida qaraladi. Bunday yondashuv ta’lim jarayonida insonning faol sub’yekt sifatida ishtirokini ta’minlaydi.

Ye.V.Bondarevskaya esa bunday muhitni “O‘quvchi shaxsiyatining salohiyatini ro‘yobga chiqarishga ko‘maklashuvchi, axloqiy va intellektual rivojlanishini qo‘llab-quvvatlovchi, faol shaxslar o‘rtasidagi hamkorlik va muloqot muhiti” sifatida tavsiflaydi.⁵¹ Ushbu ta’rifdan kelib chiqib, ta’lim muhiti faqatgina bilim berish vositasi emas, balki shaxsni har tomonlama: ma’naviy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy va intellektual jihatdan rivojlantiruvchi keng qamrovli tarbiya muhiti sifatida tushuntirilmoqda. Bondarevskaya ta’lim muhitini jamiyat ehtiyojlari va shaxsiy taraqqiyot o‘rtasidagi muvozanatni saqlaydigan, maqsadga yo‘naltirilgan tizim sifatida ko‘radi.

Ye.V.Bondarevskaya va A.V.Xutorskoy ta’riflarini tahlil etish natijasida integrativ va shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlarni uyg‘unlashtiruvchi quyidagi mualliflik ta’rifi taklif etiladi: **integrativ-kommunikativ ta’lim muhiti** – bu shaxsning intellektual, ijtimoiy,

⁵⁰ Хуторской А.В. Современные дидактические системы. – М.: ВЛАДОС, 2002. – С.119.

⁵¹ Бондаревская Е.В. Воспитание – как возрождение человеческого в человеке. – Ростов н/Д: Изд-во РГПУ, 2001. – С.56.

ma’naviy va nutqiy rivojlanishiga xizmat qiluvchi, fanlararo bog‘liqlik va sub’yekt-sub’yektki muloqot asosida tashkil etiladigan, ma’no yaratish, fikr almashish va ijtimoiy tajriba orttirishni ta’minlovchi pedagogik-didaktik makondir.

Bu ta’rifda ta’lim muhiti faqat ma’lumot berish emas, balki faol muloqot, fikrlash va shaxsiy kamolni rag‘batlantiruvchi tizim sifatida ifodalangan bo‘lib, zamonaviy pedagogikaning gumanistik va kognitiv talablariga to‘liq mos keladi.

Bizningcha, kommunikativ muhitning tarkibiy xususiyatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

birinchidan, u sub’yektlar o‘rtasidagi teng va o‘zaro hurmatga asoslangan munosabatlarni talab qiladi;

ikkinchidan, ta’lim jarayonida faol muloqotni ta’minlovchi didaktik vositalar (keysli tahlil, jamoaviy munozara, kvest, rolli o‘yinlar) bilan boyitilgan bo‘ladi;

uchinchidan, shaxsning nutqiy qobiliyatini faollashtirishga qaratilgan lingvistik va kognitiv jarayonlarni uyg‘unlashtiradi.

Bunday muhitda ta’lim faqat axborot yetkazish emas, balki ma’no yaratish va ijtimoiy anglash faoliyati sifatida shakllanadi. Shu jihatdan, kommunikativ muhit o‘zining pedagogik qiymati bilan innovasion ta’lim jarayonining asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Kommunikativ muhit orqali faol shaxsni shakllantirish ta’limning boshlang‘ich bosqichida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu bosqichda o‘quvchi shaxsining nutqiy faolligi, fikrlash madaniyati, ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish qobiliyati va ichki faolligi shakllanadi. Kommunikativ muhitni yaratishda ta’lim mazmunining bola ongiga yaqin, hayotiy vaziyatlarga bog‘langan, mulohaza va munosabat talab etuvchi tarzda tashkil etilishi muhimdir. Bunday muhitda o‘quvchi fikrini erkin ifodalash, jamoaviy muhokamaga qo‘shilish, o‘z nuqtai nazarini himoya qilish, boshqalarni eshitish va ularni anglash orqali shaxs sifatida faollasha boradi. Shuningdek, kommunikativ muhit bu faqat muloqot uchun sharoit emas, balki o‘quvchida ijtimoiy anglash, ma’no yaratish, axloqiy pozisiya va shaxsiy qaror qabul qilish faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi muhitdir. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kommunikatsiya faqat nutqiy rivojlanish emas, balki ularning mustaqil fikrlashini, shaxsiy munosabatini va ijtimoiy hissiyotini ham shakllantiradi. Pedagog bolalarda nutqiy faollikni rag‘batlantiruvchi usullar: fikr yuritish maydonlari, muhokama burchaklari, rolli dialoglar, “mulohazali savollar” kabi topshiriqlar yordamida shaxsiy ishtirokni faollashtiradi. A.V.Xutorskoy ta’kidlaganidek, “Kommunikativ muhit insonning mustaqil fikrlash, muloqotda o‘z pozitsiyasini aniqlash va boshqalarning fikrini inobatga olgan holda qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish uchun asosiy omil hisoblanadi”.⁵² Shu asosda boshlang‘ich ta’limda integrativ-kommunikativ muhitni shakllantirish faqat bilim berish vositasi emas, balki shaxsiy faollikni rag‘batlantiruvchi pedagogik mexanizm sifatida xizmat qiladi. Bunday muhitda o‘quvchi nafaqat bilib, balki anglab, fikr yuritib, muloqotga kirishib, faol shaxsga aylanadi.

Motivasion omillar ta’lim muhitining faollashuvida va o‘quvchilarning kommunikativ faolligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim

⁵² Хуторской А.В. Современные дидактические системы. – М.: Изд-во УРАО, 2005. – С. 114.

bosqichida o‘quvchi shaxsining o‘qishga bo‘lgan ichki va tashqi qiziqishi, ijtimoiy-emosional ehtiyojlari va shaxsiy muvaffaqiyatga intilishi motivasion jarayonlar bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim muhitida motivatsiya nafaqat harakatlantiruvchi kuch, balki muloqotga kirishish, faol ishtirok etish va nutqiy ifoda qilishga undauvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, ta’lim muhitini shakllantirishda o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari va ichki rag‘batlarini hisobga olgan holda motivasion faollashtiruvchi shart-sharoitlarni yaratish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alixonov S. Dars jarayonida muammoli ta’lim masalalari // Kasb- hunar ta’limi, 2006. -№5. - B.8-9.
2. Boltayeva B. Boshlangich sinflarda lug‘at ustida ishlashda iboralarni o‘rganish. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovasiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent:. – 2018. – B.207.
3. Выготский Л.С. Диагностика развития и педологическая клиника трудного детства // Выготский Л.С. Собр. соч.: в 6 т. Т. 5. М.: Педагогика, 1983. С. 257–321.
4. Галиев Т.Т. Системный подход интенсификации учебного процесса. Diss.dokt. ped. nauk .- Karaganda, 2002. -150 s.
5. Davletov E.Yu. Boshlangich ta’limga PIRLS baholash dasturi imkoniyatlari. Zamonaviy uzluksiz ta’lim muammolari: innovasiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. – Toshkent:. – 2018. – B.248.